

**TALABA YOSHLARNING KASBIY SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI
PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR.**

Toshtemirova N

Mustaqil tadqiqotchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21397389>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba yoshlarning professional kamoloti va kasbiy shakllanishiga ta'sir etuvchi eng muhim pedagogik hamda psixologik determinatnlar tahlil qilingan. Tadqiqotda talabaning ichki motivatsiyasi, qadriyatlar tizimi, refleksiya mexanizmlari, kasbiy „Men“-konsepsiyasi, kommunikativ kompetentlik hamda zamonaviy mehnat bozoridagi stressga bardoshlilik xususiyatlari yaxlit tizim sifatida o'rganilgan. Maqola yakunida bo'lajak mutaxassislar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy shakllanish, ichki motivatsiya, qadriyat, refleksiya, kasbiy o'zini anglash, kommunikativ kompetentlik, stressga bardoshlilik, talaba yoshlar.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА
ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ПОДГОТОВКУ СТУДЕНТОВ.**

Тоштемирова Н

Независимый исследователь

Аннотация: В данной статье анализируются наиболее важные педагогические и психологические детерминанты, влияющие на профессиональное развитие и профессиональную подготовку студентов, обучающихся в системе высшего образования. В исследовании изучаются внутренняя мотивация студента, система ценностей, механизмы рефлексии, профессиональное «я», коммуникативная компетентность и стрессоустойчивость на современном рынке труда как целостная система. В заключение статьи даются практические рекомендации по повышению конкурентоспособности будущих специалистов.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, внутренняя мотивация, ценности, рефлексия, профессиональное самосознание, коммуникативная компетентность, стрессоустойчивость, студенты.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING
STUDENTS' PROFESSIONAL TRAINING.**

N. Toshtemirova

Independent Researcher

Abstract: This article analyzes the most important pedagogical and psychological determinants influencing the professional development and training of students studying in higher education. The study examines students' intrinsic motivation, value systems, reflection mechanisms, professional self-awareness, communicative competence, and stress resilience in the modern labor market as a holistic system. The article concludes with practical recommendations for enhancing the competitiveness of future specialists.

Keywords: professional training, intrinsic motivation, values, reflection, professional self-awareness, communicative competence, stress resilience, students.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va shiddat bilan o'zgarib borayotgan mehnat bozori oliy ta'lim tizimi oldiga nafaqat nazariy bilimga ega, balki chuqur kasbiy o'zlikni anglagan, moslashuvchan va psixologik jihatdan barqaror mutaxassislarini tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Talabalik davri inson hayotining eng dinamik bosqichi bo'lib, bu davrda shaxsning kasbiy shakllanishi jadallashadi. Akademik Sh.R. Baratov ta'kidlaganidek, ta'lim tizimidagi har qanday psixologik ko'mak bo'lajak mutaxassisning subyekt sifatida o'z salohiyatini namoyon etishiga qaratilmog'i lozim [1]. Talabani oliy ta'lim muhitiga moslashishi va kasb sirlarini egallashi faqatgina tashqi pedagogik ta'sirlarga emas, balki uning ichki psixologik tuzilishi, motivlari va shaxsiy resurslariga ham bog'liqdir. Ushbu o'tish davrida o'quv-kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati shaxsning ichki psixofiziologik resurslari va tashqi ta'lim muhitining o'zaro integratsiyalashuv darajasi bilan belgilanadi [2].

Motivatsiya — talabani o'quv-kasbiy faoliyatini faollashtiruvchi va yo'naltiruvchi bosh omildir. Rossiyalik yetakchi pedagog-psixolog I.V. Dubrovina o'z tadqiqotlarida ta'lim muhitida shaxsning rivojlanishi uning maqsadli yo'naltirilgan motivlari bilan belgilanishini ko'rsatib o'tgan [2]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar talabada faqatgina tashqi motivlar (diplom olish, ota-ona bosimi, moddiy rag'bat) ustunlik qilsa, kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirish yuzaki kechadi. Aksincha, ichki motivatsiya — kasbga bo'lgan chuqur qiziqish, yangi bilimlarni olishga intilish va o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyoji talabani professional faoliyat subyektiga aylanishini ta'minlaydi.

Shaxsning qadriyatlar tizimi uning hayotiy va professional strategiyalarini belgilaydi. Kasbiy shakllanish jarayonida talabani shaxsiy qadriyatlari tanlangan kasbning ijtimoiy va professional qadriyatlar bilan integratsiyalashishi lozim. Mehnat psixologiyasi namoyandasi Y.A. Klimov o'zining kasblar klassifikatsiyasi nazariyasida ko'rsatganidek, inson o'z kasbiy muhitida muvaffaqiyat qozonishi uchun uning ichki qadriyatlari masalan, „Inson-Inson“ tizimida — altruizm, muloqotga ochiqlik, mehnat obyekti talablariga mos kelishi shart. Talabalik davrida qadriyatlarning ijtimoiy foydali mehnatga, ijodkorlikka va professional o'sishga yo'naltirilishi kelajakda kasbiy deoriyatsiyaning oldini oladi.

Refleksiya talabaga o'z o'quv faoliyati, yutuq va kamchiliklarini tashqaridan kuzatish, tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Psixologiyada refleksiya shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish tizimining asosi hisoblanadi. Z.T. Nishanova o'zining psixokorreksiya va amaliy psixologiyaga oid ishlarida ta'kidlashicha, talabalarda reflektiv ko'nikmalarning rivojlanmaganligi ularning o'z imkoniyatlarini noto'g'ri baholashiga olib keladi [4]. Refleksiya mexanizmi rivojlangan talaba o'z kasbiy kamchiliklarini ko'radi va ularni bartaraf etish uchun mustaqil ta'lim traektoriyasini tuza oladi.

Kasbiy o'zini anglash — bu talabani o'zini bo'lajak kasb mutaxassisi sifatida his qilishi, kasbiy normalar va rollarni o'zlashtirish darajasidir. Xorijiy tadqiqotchi K.W. Merrell maktab va oliy ta'lim psixologiyasiga bag'ishlangan asarida yoshlarning professional identifikatsiyasi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli karyerasi uchun poydevor bo'lishini asoslagan [5]. Kasbiy o'zini anglash yuqori bo'lgan talaba o'zini shunchaki „o'quvchi“ emas, balki sohaning bo'lajak mutaxassisi sifatida ko'radi va amaliy mashg'ulotlarga mas'uliyat bilan yondashadi.

Zamonaviy mehnat muhitida yumshoq ko'nikmalar, xususan, kommunikativ kompetentlik yetakchi olinga chiqdi. Kommunikativ kompetentlik — bu muloqotga kirisha olish, fikrini aniq bayon etish, jamoada ishlash va konstruktiv muloqot o'rnatish qobiliyatidir. M.R. Bityanova maktab va oliy ta'lim tizimidagi amaliy ishlarni tashkil etish modelida o'smir va yoshlarning sotsializatsiyasida kommunikativ muhitning rolini yuqori baholagan. Talabalarda ushbu kompetentlikni rivojlantirish seminar mashg'ulotlari, interaktiv o'yinlar va jamoaviy loyihalar orqali pedagogik jihatdan ta'minlanadi. Oliy ta'limdagi yuqori intellektual yuklama, imtihonlar sessiyasi va kelajak oldidagi xavotir talabalarda psixofiziologik zo'riqlashlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, kasbiy shakllanishning eng muhim omillaridan biri — stressga bardoshlilikdir. Ekstremal vaziyatlar va inqirozlar psixologiyasi bo'yicha mahalliy tadqiqotchi olimlar O.R. Avezov va Z.J. Axmedova o'z darsliklarida ta'kidlaganidek, insonning har qanday yangi

sharoitga va bosimlarga bardosh berishi uning emotsional-irodaviy barqarorligi hamda adaptiv koping-strategiyalariga bog'liqdir. Stressga bardoshli talabalar inqirozli vaziyatlarda (masalan, imtihondan yiqilish yoki amaliyotdagi muvaffaqiyatsizlik) o'zlarini yo'qotib qo'ymasdan, muammoni hal qilishga yo'naltirilgan xulq-atvorni namoyon etadilar.

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning kasbiy shakllanishi va professional shaxs sifatida kamol topishi tasodifiy dinamika emas, balki aniq pedagogik shart-sharoitlar va murakkab ichki psixologik determinatlar o'zaro uyg'unlashgan ko'p bosqichli tizimdir. Tadqiqot davomida tahlil qilingan oltita fundamental omil — ichki motivatsiya, tizimli qadriyatlar, faol refleksiya, shakllangan kasbiy o'zini anglash, yuqori kommunikativ kompetentlik hamda emotsional stressga bardoshlilik xususiyatlari — bo'lajak mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlovchi yaxlit kognitiv-shaxsiy poydevorni tashkil etadi. Bu omillarning har biri talaba shaxsining kasbiy sotsializatsiyasida zanjirsimon bog'liqlikni yuzaga keltirishi ilmiy jihatdan asoslandi. Xususan, talabaning tanlagan yo'nalishiga bo'lgan ichki motivatsiyasi va shaxsiy qadriyatlari professional faoliyatning maqsadi hamda ma'nosini belgilab bersa, kasbiy o'zini anglash va refleksiya mexanizmlari ushbu maqsadga erishish yo'lidagi ichki resurslarni, yutuq hamda kamchiliklarni xolis tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy mehnat bozoridagi shiddatli integratsiya sharoitida esa kommunikativ kompetentlik loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va jamoada ishlash vositasi bo'lib xizmat qilsa, stressga bardoshlilik yosh mutaxassisni kasbiy inqirozlar hamda emotsional kuyish xavfidan saqlovchi psixologik qalqon vazifasini o'taydi. Ushbu omillarning birortasida uzilish yoki rivojlanmay qolish holati kuzatilsa, talabada kasbiy deoriyatsiya, o'z mutaxassisligidan ko'ngli qolish va kadrlar qo'nimsizligi kabi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR

1. Baratov Sh.R. Ta'lim tizimida psixologik xizmat: Darslik. – T.: Universitet, 2007. – 248 b.
2. Дубровина И. В. Практическая психология образования: Учебник для вузов. – М.: Питер, 2004. – 592 с.
3. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения. – М.: Академия, 2004. – 304 с.
4. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya: Darslik. – T.: Turan-edu, 2024. – 412 b.
5. Merrell K. W., Ervin R. A., Gimpel Peacock G. School Psychology for the 21st Century: Foundations and Practices. – New York: The Guilford Press, 2012. – 302 p.
6. Битянова М. Р. Организация психологической работы в школе. – М.: Генезис, 2017. – 298 с.
7. Avezov O.R., Axmedova Z.J. Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi: Darslik. – Buxoro: Kamolot, 2022. – 332 b.